

**YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA
XUSUSIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN
MAQSADLAR HAMDA ERISHILGAN YUTUQLAR**

Ne’matova Umida Jumanazar qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti magistranti

nematovau@mail.ru

(+99891)9500655

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasida xususiy ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli vazifalar, davlat siyosatining xususiy sektor ulushining oshishidagi maqsad va natijalari va bu jarayonning ta’lim sifatiga ta’siri ilmiy asosda muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: xususiy ta’lim, strategiya, modernizatsiya, soliq imtiyozlari, islohotlar

Kirish

Oxirgi yillarda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida mamlakatimizda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uning moddiy-texnik bazasini kengaytirish, raqobat muhitini shakllantirish va xususiy sektorni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim sohasida davlat bilan xususiy sektorning hamkorlikdagi faoliyati tizimga samaradorlik, moslashuvchanlik va innovatsion qarashlarni olib kirmoqda. Shu sababli strategiyada xususiy ta’lim tashkilotlarining sonini ko‘paytirish, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, litsenziyalash jarayonlarini



soddalashtirish va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Mazkur tezisda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida xususiy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan maqsadlar, islohotlar hamda bu yo'nalishda erishilgan amaliy natijalar tahlil qilinadi.

Asosiy qism

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining ta'lim sohasiga oid qismida xususiy ta'limni rivojlantirish alohida qayd etilgan va bir qancha strategik maqsadlar belgilangan.

Birinchidan – xususiy ta'lim tashkilotlari sonini ko'paytirish. Strategiyaga muvofiq, barcha hududlarda sifatli ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabni qondirish uchun xususiy maktabgacha ta'lim, maktablar, o'quv markazlari va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini rag'batlantirish maqsad qilingan. Ayniqsa, xususiy bog'cha va maktablar sonini oshirish ko'zda tutilgan.

Ikkinchidan – davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida ta'lim muassasalarini tashkil etish. Yangi ta'lim tashkilotlariga yer ajratish, infratuzilma bilan ta'minlash, imtiyozli kreditlar va soliq to'lash tartibini yengillashtirish orqali xususiy ta'lim tizimini rivojlantirish DXSh tartibini to'g'ri ishlashini ko'rsatmoqda. **Uchinchidan – xususiy sektor uchun qulay huquqiy va iqtisodiy muhit yaratish.**

Strategiyada xususiy ta'lim uchun quyidagi yengilliklar belgilangan, ya'ni, litsenziya olish jarayonini soddalashtirish, soliqlardan ozod qilish yoki kamaytirilgan soliq stavkalari belgilash, kreditlar uchun kafolat mexanizmlarini kuchaytirish, o'qituvchilarni tayyorlash tizimini rag'batlantirish.



To‘rtinchidan – raqobat orqali ta’lim sifatini oshirish.

Xususiy sektor kirishi bilan ta’lim tizimida yangicha yondashuvlar, innovatsion metodlar, xorijiy standartlar va raqamli texnologiyalar tezroq tadbiri qilinmoqda.

Quyida xususiy ta’limni rivojlantirishda amalga oshirilgan islohotlarni ko‘rib chiqamiz.

1. Litsenziyalash jarayoni soddalashtirildi.

Endilikda xususiy maktab, bog‘cha yoki kurs ochish niyatida bo‘ganlar uchun talab qilinadigan hujjatlar kamaytirildi hamda elektron tarzda topshirish imkoniyati yaratildi.

2. Xususiy bog‘chalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha subsidiyalar berildi.

Ayrim hududlarda davlat tomonidan xususiy bog‘chalarga bolalarga to‘lanadigan subsidiyalar joriy qilindi. Natijada sohada tadbirkorlarning faolligini oshirdi.

3. Ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish uchun yer ajratish tartibi yengillashtirildi.

Ko‘pgina xususiy maktablar uchun bo‘sh yer maydonlari DXSh mexanizmlari asosida ajratildi, bu esa o‘z navbatida yangi ta’lim loyihalarining tez rivojlanishiga sharoit yaratdi.

4. Soliq to‘lovlarini amalga oshirishda yengilliklar berildi.

Ko‘plab xususiy ta’lim subyektlari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i, foyda solig‘i yoki yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar belgilangan.

5. O‘qituvchilar malakasini oshirish uchun yangi dasturlar va tartiblar belgilandi.

Xususiy maktab va bog‘chalarda ishlovchi pedagoglar



davlat dasturlari asosida bepul malaka oshirish kurslarida qatnashish huquqiga ega bo'ldi.

Xususiy ta'limning rivojlanish natijalari va yutuqlar

Yangi O'zbekiston strategiyasi doirasidagi amalga oshirilgan islohotlar qisqa vaqt ichida salmoqli natija berdi. Bunda **xususiy bog'chalar soni sezilarli darajada o'sdi**. Agar 2016 yilda mamlakatda atigi bir necha o'nlab xususiy bog'chalar mavjud bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni mingdan ortiq. Bu esa bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrash darajasining keskin oshishiga olib keldi. **Xususiy umumta'lim maktablarning soni ko'payishi** so'nggi yillarda bir necha baravar oshdi. Ular zamonaviy binolarda, innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida, xorijiy dasturlarni amalda qo'llagan holda faoliyat yuritmoqda.

O'quv markazlarining keng rivojlanishi ham alohida ahamiyatga ega. Til kurslari, IT markazlar, repetitorlik xizmatlari, professional o'quv markazlarining ko'payishi yoshlarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamladi. Bu bozorning rivojlanishi ta'lim sifatidagi raqobatni kuchaytirdi.

O'zbekistonda xorijiy universitetlarning filiallari ochilmoqda, yangi nodavlat oliygohlar tashkil etilmoqda, xalqaro diplom beruvchi qo'shma dasturlar kengaymoqda. Xususan, taraqqiyot strategiyasida xususiy oli ta'limtashkilotlarini sonini 50taga yetkazish maqsad qilingan.

Ta'lim sifatining yaxshilanishini ko'plab sohalardagi o'zgarishlar ham ko'rsatmoqda. Xususiy sektorning kirishi natijasida:

- ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlari,
- innovatsion metodlar,
- xalqaro baholash standartlari,
- chet tilini chuqur o'qitish tizimi,



- raqamli platformalar amaliyotga tez kirib keldi.

O'qituvchi va mutaxxassislar uchun yangi ish o'rinlari shakllandi, ta'lim tashkilotlarida ish yuklamalari kamaytirildi. Endilikda, xususiy maktab va oliygohlar ilg'or bilim va tajribaga ega ustozlarni jalb qilish uchun raqobatlasha boshladi. Ushbu tashkilotlarga o'z o'quv rejasi va ichki tartib-qoidalarini tuzishda erkinliklar berildi. Bu esa aholining xususiy maktablar haqidagi qarashlarini o'zgartirdi. Bu o'z navbatida umumiy ta'lim tizimida ham sifat oshishiga turtki bo'lmoqda.

Xulosa

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ta'lim tizimining tubdan modernizatsiya qilinishi maqsadida xususiy ta'lim sektorini rivojlantirish bo'yicha yo'nalishlar belgilangan. Xususiy bog'cha, maktab, markaz va oliygohlarning ko'payishi nafaqat ta'lim xizmatlari qamrovini oshirdi, balki sifat, raqobat va innovatsiyalarni kuchaytirdi.

Bu yo'nalishda litsenziyalashni soddalashtirish, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, DXSh mexanizmlarining faollashuvi ta'lim sohasida xususiy sektorning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Erishilgan yutuqlar kelgusida ta'lim tizimini integratsion, zamonaviy va xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026" hujjati.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5198-son Farmoni.



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari” PQ-3651-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi statistik ma’lumotlari (2024).
5. Abduraxmonova N. “O‘zbekistonda xususiy ta’limning rivojlanish bosqichlari”. — Toshkent, 2023.
6. UNESCO Education Reports (2022–2024).

